O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM MUASSASALARINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Mardonov Zokirjon Aliqul o'g'li
Tashkent International University of Education magistranti
Tel.: +998946990070

Qabul qilindi: 26.10.2025 **Tasdiqlandi**: 27.10.2025
Ko'rib chiqildi: 26.10.2025

Vatanimiz tarixida diniy ta'lim uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ilk o'rta asrlardayoq yurtimizda keng miqyosda faoliyat yuritgan madrasalarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan. O'z davrida madrasalar, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim vazifasini to'laqonli bajargan.

O'zbekistonda islom ta'limi o'zining ko'p asrlik ildizlariga ega. Shuningdek, ilk o'rta asrlardayoq bu yerda diniy va dunyoviy fanlar o'qitilgan keng tarmoqli madrasalar mavjud bo'lgan. Movarounnahr qadimdan nafaqat musulmon dunyosida, balki butun jahon miqyosida ilm-fan, madaniyat va xususan, islom ilmlarining nazariy jihatdan rivojlanish markazi sifatida tan olingan. Butun dunyoga Beruniy, Ibn Sino va Ulug'bek kabi buyuk olimlarning ismlari ma'lum bo'lib, ular ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo'shganlar. Musulmon olami Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa mutafakkirlarning asarlarini biladi va o'rganadi. Zamonaviy musulmon ulamolari tan olganidek, ular islom ilmlarini ilmiy fan darajasiga ko'tardilar. Ularning asarlari orqali tafsir, hadis, fiqh, kalom kabi fanlar yangi bosqichga ko'tarildi. Shuni ham qayd etish kerakki, bu tabiatshunoslik va diniy fanlarning barcha yirik vakillari o'zlarining dastlabki bilimlarini madrasalarda olganlar.

Ilk madrasalar vujudga kelgan geografik hudud milodiy to'qqizinchi asr oxirlaridagi Xuroson va Movarounnahr hududiga to'g'ri keladi. Mazkur hududda madrasalarning paydo bo'lishiga budda monastirlari(vixara)ning salmoqli ta'sir ko'rsatgani taxmin qilinadi. Bu hududda Buddaviylik ta'siri ortib, bu dinga e'tiqod qiluvchilar azaliy an'analarga ega bo'ldi. Monastirlar O'rta Osiyoning islomiy an'analariga ikki jihatdan ta'sir ko'rsatgan deb hisoblanadi: birinchisi, buddaviylik an'anasi ilk islom tasavvufi uchun namuna va ilhom manbai bo'lib xizmat qildi, ikkinchisi esa, budda monastir va majmualarda qo'llaniladigan ta'lim tizimining ilk musulmonlar uchun namuna bo'lganidir. Musulmon din ahli yoki buddaviylikdan musulmonlikni qabul qilgan olimlar oldingi ta'lim tizimini tark etmasdan, ularni islomiylashtirib, ilk madrasalarni tashkil etganlar.[1]Islom olamida madrasa darajasidagi o'quv muassasalarining eng qadimgilari Buxoroda

[1] Kazıcı. İslam Müesseseleri Tarihi. –B. 231

bo‘lgani taxmin qilinadi. Nizomulmulk Bag‘dodda mashhur Nizomiya madrasasini ta’sis etarkan, buyuk ehtimol bilan u Sharqda mavjud bo‘lgan ta’lim muassasasidan nusxa olgan edi. Sharq mintaqasidagi bu muassasa aynan Buxoroda edi. Shu bilan birga, kuchli ehtimolga ko‘ra, Buxoro madrasalarning vatani bo‘lishi mumkin.[2]

Somoniylar davrida ham Movarounnahr hududida joylashgan Buxoro va Samarqand shaharlarida madrasalar mavjud bo‘lgani va ularda ta’lim va tarbiya ishlari olib borilganini ko‘rishimiz mumkin. Buxoroning Sarg‘ mavzesidagi masjidni Tug‘rulbey buzdirib, masjid yog‘ochlaridan Suvaykatul Baqqolin nomli joyda bir madrasa qurdirgan. Keyinchalik bu madrasa Gular Tekin nomi bilan ataldi.[3] Somoniy hukmdorlaridan Muzaffar ibn Ahmad ibn Nasr ibn Ahmad Samarqandda diniy ilmlar bilan bir qatorda tibbiyot, astronomiya, tabiiy fanlar va tarix sohasidagi olim Abu Hotim Muhammad ibn Hibbon Bustiy (vaf. 965) uchun bir ta’lim muassasasi qurdirgan. Mazkur bino ayniqsa, hadis ilmi ahli uchun ko‘kalamzor bir madrasa bo‘lgani ta’riflanadi.[4]

Movarounnahrdagi musulmon jamoalarining shakllanishi va rivojida Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi shaharlar alohida ahamiyat kasb etgan. Ushbu shaharlar eng yirik ilm markazlari bo‘lib, XV-XIX asrlarda bu yerlar butun musulmon olamining oliy ta’lim markazlari sifatida tan olingan. XV–XIX asrlarda ularda butun musulmon dunyosida mashhur bo‘lgan «Mir Arab», «Sherdor», «Ulug‘bek», «Tillakori», «Ko‘kaldosh», «Baroqxon» kabi yirik ta’lim maskanlari bunyod etildi. XIX asr oxiriga kelib, Buxoro amirligida 336 ta, Xiva xonligida 132 ta, Turkiston o‘lkasida 348 ta madrasa faoliyat ko‘rsatgan.

Podshoh Rossiyasi istilosidan keyingi davrlarda madrasalar faoliyati sustlashdi. Ayrimlari yopilib ham ketdi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib, jadid maktablari faoliyati yuzaga keldi. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 100 ga yaqin yangi usul maktablari faoliyat yuritib, ularda 4 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim olgan. Bu maktablarda islom dini asoslari bilan bir qatorda chet tili, fizika, kimyo, matematika, psixologiya, gigiyena, agronomiya, iqtisod, hisob-kitob kabi zamonaviy fanlar o‘qitilgan.

Sovet Ittifoqi tuzilgach, din va madrasalarga qarshi ayovsiz kurash avj oldi. Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet davlati o‘z siyosiy manfaatlari yo‘lida dinga munosabatini bir oz yumshatdi.

1945-yilda Buxoroda Mir Arab madrasasi uzoq yillik tanaffusdan so‘ng qayta ishga tushirildi. Keyinroq Toshkentdagi Baroqxon madrasasi faoliyatini boshlab, 1971-yilda u Imom Buxoriy nomli Toshkent islom instituti nomini oldi. 1990-yilga qadar Sobiq Sovet hududida mazkur ikki bilim yurtidan boshqa

[2] Havansariy, Muhammad Bakir Isfahoniy. Ravzatul jannot fi ahvolil ulamoi vas sadat. Asadulloh Ismoiliyon tahqiqi. –Tehron: Maktabatul Ismoiliyon, 1390. J. IV. –B. 184

[3] Narshaxiy. Buxoro tarixi. –B. 30

[4] Aydınlı, Osman. Semerkant Tarihi. –B. 373

islomiy ta'lim muassasalari bo'lmagan. Ular asosan SADUM huzurida masjid imomlarini tayyorlashga ixtisoslashgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng diniy ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Davlat ro'yxatidan o'tgan madrasalar diniy-madaniy obyektlar O'zbekiston Musulmonlari idorasi tasarrufiga topshirildi. Bugungi kunda yurtimizda quyidagi diniy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda:

«Mir Arab» o'rta maxsus islom bilim yurti — Shayx Said Abdulla al-Yamani tomonidan Amir Ubaydullaxon mablag'lariga 1530-1536-yillarda barpo etilgan.

«Mir Arab» oliy madrasasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yilda tashkil etilgan. Mazkur oliy ta'lim muassasasi, Buxoro viloyati Kogon tumanidani Bahouddin Naqshband ziyoratgohi hududida joylashgan.

«Ko'kaldosh» o'rta maxsus islom bilim yurti — Madrasa 1569-1570-yillarda Baroqxon tomonidan qurdirilgan. 1999-yilda madrasa O'rta maxsus bilim yurti sifatida qayta ochildi.

«Sayyid Muhyiddin Maxdum» o'rta maxsus islom bilim yurti — 1992-yil Andijon viloyati Oltinko'l tumani Jalabek qishlog'ida barpo etilgan.

Mulla Qirg'iz Oxund madrasasi – 1914-1915-yillarda Namangan viloyatida Atoulloxon tomonidan barpo etilgan. 2014-yilda «Hidoya» nomi bilan o'rta maxsus islom bilim yurti sifatida qayta tashkil etilgan.

«Xoja Buxoriy» o'rta maxsus islom bilim yurti – 1992-yilda Qashqadaryoning Kitob tumanida tashkil etilgan. Madrasaga Saidahmad Vali Kulohdo'z Xoja Buxoriy nomi berilgan.

Muhammad Beruniy nomidagi Islom o'rta-maxsus bilim yurti — 1992-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukusda ochilgan. Bilim yurti Nukusdagi «Imom Eshon» jome' masjidi binosida joylashgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida islom ta'limini isloh qilish va yangilash harakati paydo bo'lib, u «jadidchilik» nomi bilan tarixga kirdi. Jadidlar yangi usul maktablarini ochib, muntazam gazeta chiqara boshladilar, darslik va qo'llanmalar yozdilar, xususan, tabiiy fanlarni o'qitishni targ'ib qildilar, Yevropa madaniyatining yutuqlaridan foydalanishni keng yoydilar. Bu esa milliy dunyoviy ta'lim paydo bo'lishiga, ma'naviy hayotning yangilanishi va boyishiga, milliy o'zlikning yuksalishiga zamin yaratdi. Ularning sa'y-harakatlari tufayli madrasalar dasturiga chet tillari, fizika, kimyo, matematika, psixologiya, gigiyena, agronomiya, iqtisod, buxgalteriya va savdo kabi fanlar kiritildi.